

INTERNET TARMOG‘IDAN TO‘G‘RI FOYDALANISH

MADANIYATI

**Gulimmatova Maftuna Xamid qizi
Xorazm viloyati Gurlan tumani
1-son kasb-hunar maktabi
Informatika fani o‘qituvchisi**

Annotatsiya: ushbu maqolada, internet tarmog‘ining vujudga kelishi, hozirgi kundagi ahamiyati hamda undan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Internet tarmog‘i, xavf, tajovuzkor va ijtimoiy xavfli materiallar, olam, global, tarmoq.

Annotation: in this article, information is presented about the emergence of the internet network, its current importance and the formation of a culture of its correct use.

Keywords: Internet Network, risk, aggressive and socially dangerous materials, universe, global, network.

Internet tarmog‘i kun sayin har bir tashkilot, ijtimoiy muassasa, o’quv yurtlari va xonadonimizga kirib kelmoqda. Respublikamizda internetdan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda. Ko’pchilik yoshlar hayotiy tasavvurga yetarlicha ega bo’lmasa-da, lekin axborot vositasiga aylanib qolmoqda. Bu shunday taajjubsiz holatki, sababi yoshlar o’zlariga referat yoki kurs ishi izlab, musiqa eshitish, o’ziga yoqqan kitobni sotib olish yoki forum mavzularini jonli mushohadalarida ishtirok etish orqali internetga kirib bormoqdalar.

Internet ta’lim olish, dam olish yoki do’stlar bilan muloqot qildishning ajoyib vositasi bo’lishi mumkin. Ammo hayotga real ko’z bilan qaraydigan bo’lsak, tarmoq o’z o’rnida xavfdan ham xoli emas albatta: uning ham o’ziga xos

bezoriligi, jinoiy olami, zarari va nomaqbullik tomonlari mavjuddir. Virtual muloqot insonlarga, bolalarga zarar keltiruvchi manba bo'lib qolishi ham hech gap emas aslida. Oxirgi vaqtarda Internetda ko'pgina tajovuzkor va ijtimoiy xavfli materiallar paydo bo'lib qolmoqda.



Internet bu – hozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog'i bo'lib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya'ni ongimizga mavhum bo'lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma'lumot beruvchi axborot manbaidir. Tabiiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo'lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoq hisoblanadi. Zero unda mayjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnlar, tasvir hamda ovoz xizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo'lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor virtual olamga jalb etib bormoqda.

Ayniqsa bu ta'sir doirasidan o'smir yoshlar ham yo'q emas albatta. Bu borada mutaxasislarning so'zlari quyidagi natijalarni isbotlab bermoqda:

Internet tarmog'idagi ijobiylik insonning fan, soha va faoliyatiga bog'liq muhim aniq dalillarga ega bo'lishida har tomonlama qulayligi va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga olib kelishi hammaga ayon, lekin qiziquvchanlik sababli Internet axborotlaridagi ortiqcha ma'lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlaridir. Izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushoxada, tahlil qilish qobiliyati hamda xotiraning o'tkirlik darajasini susaytirishga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, Internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo'lмаган ва insonning o'z tafakkuridan kelib chiqqan qonun-qoidalar asosida bo'lishi kerakligi hamda undagi me'yor talablari, ya'ni Internet tarmog'idan axborotlarni to'g'ri tanlash har bir jihatdan o'rinnlidir. Bundan ko'rinish turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o'z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko'p ekanligi gohida o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishimizda ham bir muncha qiyinchilik tug'dirmoqda.



Barchamizga ma'lumki, Internetda ishlashimiz uchun qidiruv tizimining o'rni beqiyosdir.

O'zingizga kerakli barcha ma'lumotlarni shu kabi biron bir saytning "izlash" katakchasiga

yozib, chiqarilgan ko'pgina ma'lumotlar ichidan o'zingizga keraklisini tanlab olaverasiz yoki ma'lum bir saytning manzili yodingizdan ko'tarildimi, yana o'sha qidiruv sistemalari yordamga keladigan saytga aloqador bo'lgan kalit so'zlarini terasiz va qarabsizki, o'sha sayt qarshingizda namoyon bo'ladi.

Internet tarmog'ida: Yahoo, Google, Ref.uz singari yana boshqa nomlar bilan ataluvchi qidiruv tizimlari mavjuddir. Yuqoridagi qidiruv dasturlari haqida batafsil va umumiyligi ta'rif berishda ularni biror bir tizim orqali masalan, Google tizimini tushuntirish albatta maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu kompaniya Internetdagi yetakchi qidiruv tizimi hisoblanadi, dunyo bo'y lab tarmoq foydalanuvchilarning o'ntadan yettitasi xoxlagan ma'lumotlarni topish ilinjida aynan mana shu saytga murojat qilishadi. Tizim har kuni deyarli 50 millionga yaqin so'rovlarni qabul qiladi, sakkiz milyardlab veb-sahifalarni ideksatsiya qiladi. U 101 tildagi axborotni ham izlab topishi mumkin. Keyingi yillarda butun dunyo internet foydalanuvchilari orasida keng ommalashib borayotgan Google tizimi 1998 – yil sentyabrda ishga

tushgan. Hozirda bu kompaniyaning qidiruv tizimlaridan tashqari yana bir qator foydali va qulay xizmatlari mavjud va ular soni juda ortib bormoqda. Darhaqiqat, hozirda nafaqat Internet tarmog'i vujudga kelganligi, bundan tashqari shu kabi jahonaro rivojlanib kelayotgan turli – tuman axborot texnologiyalar yosh avlodga ijobiy ta'sir kuchini o'tkazayotganligini bir tomonidan quvonarli bo'lsa – da, ammo ikkinchi tomonidan ularni turli salbiy saboqlardan asrash maqsadida tarbiyaviy muhitni kuchaytirishga undaydi. Bugungi kunda xarbiy hizmatchilar radio–televidenie, matbuot Internet kabi vositalar orqali rang barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda.

Hozirgi zamon axborot tizimining juda keng imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umumiyligi manfaat va umumiyligi taraqqiyot nuqtai nazaridan boshqaruva mexanizmini yaratish, uning mohiyati va unsurlarini chuqur anglash zarurdir. Ana shu hayotiy ehtiyojdan kelib chiqqan holda, axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimini yaratishning quyidagi usullarini qo'llash madaniyatini zarur deb hisoblaymiz:

Birinchidan, sotsiologik yo'nalish. Bunda axborot olish hamda tarqatish jarayonida jamiyat taraqqiyotining axborotini ijtimoiy voqelik sifatidagi roldan kelib chiqib, jamiyatda shakillanayotgan ijtimoiy ong yo'nalishlari ijtimoiy tafakkur darajasi va uning oqimlarini o'rganishni yo'lga qo'yish kerak. Aholi turli qatlamlari, qarashlari, kasbiy va boshqa ijtimoiy holatlari asosidagi fikrlash tarzini aniqlab borish zarurdir.

Ikkinchidan, statistik yo'nalish. Ko'p millatli mamlakatda, xususan, 130 dan ortiq millat va elat yashayotgan O'zbekistonda millatlararo va dinlararo mojarolarni turli siyosiy manfaatlar va buzg'unchi g'oyalar ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolar manbalarini o'rganib borish, bu borada aniq hisob – kitoblarga tahliliy yechimlarga ega bo'lishi darkor.

Uchinchidan, siyosiy konfiktologiya va siyosiy psixologiya. Axborot psixologik xavf avj olayotgan bir paytda, turli buzg'unchi g'oyalar inson ongi va

tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir sharoitda siyosiy mojarolar kelib chiqish mumkin bo'lgan manbalarni o'rganish, omillarini aniqlash hamda siyosiy qarashlari, ruhiyati, ijtimoiy – siyosiy psixologik izchil ravishda o'rganib borilmog'i lozimdir.

To'rtinchidan, mantiqiy tizimi va funksional tahlil. Axborot tizimi, xususan, axborot psixologik ta'sir axborot siyosati tizimi va vositasining muhim qismi sifatida baholashi lozimdir. Voqelikka ana shu tarzda yondashib, ilmiy – tahliliy nazariy hamda amaliy xulosalar chiqarish kerak. Tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot oqimi ta'sirida shakllanayotgan ijtimoiy fikr fan nuqtai nazaridan izchil o'rganilmog'i lozim.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, Internet vositalaridan o'rin olgan jamiki axborot va ma'lumotlarning hammasi ham real, haqqoniy emasligi ayni paytda ayon bo'lmoqda. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, olinayotgan dalillarning qay darajada to'g'rilingini ongli ravishda mushohada etish maqsadga muvofiqdir. Shundagina Internet orqali egallayotgan bilimlarimiz hayotimizda ijobiy samara berishiga ishonch hosil qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan, kichkina xabar ham xattoki axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinxaymaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan bir ziyon yetkazishi mumkindir.

Adabiyotlar

1. Y.Mamatova, S.Sulaymanova. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyot yo'lida. O'quv qo'llanma. Extremum-press, 2015-94.b
2. Yahyo, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya.Yordamchi o'quv qo'llanma. Movarounnaxr, 2016.-672 b
3. А.В. Федоров. Медиаобразования и медиаграмотность. Учебное пособие. М. 2018 г.

4. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жихатлари. Ўқув-амалий қўлланма. - Extremum-press, 2017-142.6